

FRANZ KAFKA IJODI VA „EVRILISH” HIKOYASI TAHLILI

Mohinur Pulatova Rustamjon qizi

Kattaqo‘rg‘on davlat universiteti 3-bosqich talabasi.

e-mail: mohinurpulatova12@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19641979>

Annotatsiya. Mazkur maqola jahon adabiyotida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan, qator hikoya va asarlari orqali kitobxon e‘tirofiga sazovor bo‘lgan yozuvchi, romannavis, sug‘urtachi Franz Kafka ijodiga va uning „Evrilish” nomli hikoyasining poetik jihatdan tahliliga qaratilgan. Kafka umri mobaynida ko‘pgina muammolar og‘ushida yashaganligi sababli uning yaratilgan qiyinchiliklardan charchagan qahramon obrazini ko‘p uchratishimiz mumkin.

Kalit so‘zlar: Praga, Fenomenologiya, badiiy san‘at, jahon adabiyoti, bolalik yillari, German Gesse, Stefan Sveyg, o‘rganilishi, XX asr „Modern adabiyoti manzaralari”, „Evrilish”, hayotiy haqiqatlar.

Аннотация. Эта статья посвящена творчеству Франца Кафки, писателя, романиста и страховщика, заслужившего свое место в мировой литературе и получившего признание читателей благодаря ряду рассказов и произведений, а также поэтическому анализу его рассказа „Превращение”. Поскольку Кафка пережил множество трудностей на протяжении своей жизни, в его произведениях часто встречается образ героя, преодолевающего препятствия.

Ключевые слова: Прага, феноменология, искусство, мировая литература, детство, Герман Гессе, Стефан Цвейг, исследование, XX век, «Современные литературные пейзажи», „Превращение”, жизненные реалии.

Abstract. This article explores the work of Franz Kafka, a writer, novelist, and insurance broker who earned his place in world literature and garnered reader recognition for a number of short stories and novels, as well as a poetic analysis of his short story “The Metamorphosis.” Because Kafka experienced numerous hardships throughout his life, the image of a hero overcoming obstacles often appears in his works.

Keywords: Prague, phenomenology, art, world literature, childhood, Hermann Hesse, Stefan Zweig, research, 20th century, “Modern Literary Landscapes,” “The Metamorphosis”, realities of life.

KIRISH.

Fransuz adabiyotining yetuk namoyandalaridan biri Franz Kafka 1883-yilda Praga shahrida Avstriya-Vevgriya imperiyasida tug‘iladi va shu yerdagi Praga universitetida huquqshunoslikni o‘rganib, san‘at tarixi va olmonshunoslik haqida yozilgan turli kitoblarni ishtiyiq bilan o‘qiydi, ma‘ruzalarini qiziqish bilan tenglaydi.

Huquqshunoslikka bo‘lgan intilishi sababli shahar sudining advokatlar idorasida amaliyot o‘taydi. Keyingi faoliyatini bo‘lsa xususiy sug‘urta jamiyatining xizmatida, tijorat akademiyasida shu ixtisoslik bo‘yicha malakasini oshiradi. Franz Kafkaning ilk yozgan asari „Bir kurash tarixi” nomi bilan yozilgan, bundan so‘ng uning „Qurilish”, „Amerika”, „Jarayon”, „Qo‘rg‘on” kabi asarlari, „Evrilish”, „Hukm”, „Jazo koloniyasida”, „Ochlik ustasi”, „Otamga xat”, nomli nodir durdonalari dunyo yuzini ko‘radi.

Kafkaning bolaligi og'ir kechgani, otasining qattiqqo'l va talabchan inson bo'lganligini o'zining „Otasiga maktub“ asrida qalamga oladi. Hayotning turfa sinovlari unga kuchli zarba berdi, ma'lum sabablarga ko'ra turli hududlarda yashashga majbur edi, shunday bo'lsa-da, yozuvchi sifatida Avstriya, Chexiya, Germaniya adabiyotida qolaversa Yevropa va jahon adabiyotiga ham mansub ijodkor bo'lib qoldi. XX asrning birinchi yarimida Kafkani ijodi gurkiramagan bo'lsada German Gesse, Stefan Sveyg, Alfred Dyoblin kabi adiblar tomonidan unga nisbatan ijobiy yo'sindagi maqolalar bosib chiqarildi, biroq Kafka ijodini o'rganish bo'lsa jahon urushidan so'ng rivojlanadi.

Nemis yozuvchisining adabiyotda tutgan o'rni noyob va murakkab uslub sanaladi. Kasbiy faoliyatining ekzistentsializmga yo'g'rilganligi uning asarlarida sezilib turadi. Uning ijodi borasida Alber Kamyu shunday yozadi. „Kafkaning asarlarida o'zining falsafiy fikr, badiiy obraz, qolaversa, dunyoqarashlariga hamohang keluvchi jihatlari bilan ajralib turadi. Ammo Martin Xaydegger va qisman Jan-Pol Sartr falsafiy kontseptsiyasini yuqoridagi qarashlarga mos keladi deb bo'lmaydi. Kafkani fenomenologiya emas, ko'proq etika muammolari qiziqtirganligini va unda tanlash huquqini targ'ib qiluvchi g'oyalar yuqori negaki uning nazdida tanlash erkinligi yo'q bo'lgan joyda huquqqa ham o'rin yo'q deya tushungan degan fikrlarni bildirgan.

Kafka qahramoni ekzistentsializm ruhi bilan sug'orilgan „mahobatli qo'rqinch“ hissini yuragida olib yurishga mahkum etilgan edi desak han xato bo'lmaydi. O'zbek adabiyotida Muhammadjon Xolbekov o'zining XX asr „Modern adabiyoti manzaralari“ turkumida Franz Kafka asarlaridagi modernizm va ekzistenstianizm oqimlarining o'rnini tahlilga tortgan.

Qolaversa, „Jahon nasri antalogiyasi“da ham aynan Franz Kafka ijodiga alohida to'xtalinadi. Bugungi kunga kelib bir guruh tadqiqotchilar tomonidan uning ijod na'munalari o'zbek va jahon ijod ahli asarlari bilan qiyosiy tarzda o'rganilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Milliy universiteti daktarant, dotsent (PHD) Nilufar Cho'liyevaning „Adabiy ta'sir, badiiy uslub, mahorat: Franz Kafka va Nazar Eshonqul“ nomli maqolasida Kafkaning „Evrilish“ hikoyasi va Nazar Eshonqulning „Bahouddinning iti“ nomli hikoyalarida metamorfoza motiv va asar badiiyati, muallif g'oyalarini ifodalashdagi o'rni mavzusida tadqiqot olib borgan. Hajman qisqa va mohiyatan ulkan asarlar yozgan Kafka tiriklik chog'ida muvaffaqiyat qozona olmagan. Sababi, aksariyat asarlaridan ko'ngli to'lmaganligi tufayli 90 foiz ijod na'munalarini yoqib yuborgan.

Bu esa o'z navbatida ijodkorning o'z ustida ishlaganligidan va mohir qalamkash ekanligidan dalolat beradi. Aynan „Evrilish“ asari ham qayta-qayta sayqanlanganligi tufayli ham o'qilgandayoq ijobiy qabul qilinadi. Hikoyada bevosita Franz Kafkaning ruhiy dunyosi, o'sha davr ijtimoiy muhit va yuzaga kelgan turli konfliktlar jonlanadi. Hikoya absurd adabiyotining yorqin na'munasi bo'lib jamiyatdagi begonalashish va ma'naviy yolg'izlikni his qilgan Gregor Zamza ismli qahramonning hasharotga aylanishi orqali tasvirlangan.

Asar 1912-yilda yoziladi, va kitob holida 1915-yilda taqdim etiladi. Hikoya boshlanishiyoq o'qirman tomonidan hayratlanarli tarzda qabul qilinishi tabiiy, bahaybat hasharot qiyofasida uyg'ongan Zamza shu qadar arosatda qolgan ediki bu vaziyat tush bo'lsa-yu bu qo'rqinchli tush tezroq yakun topsa, afsuski bu jarayon uzoq davom etdi, davom etganda ham o'ta og'riqli va sinovlarga boy bo'ldi. Xattoki, hikoyada tanlangan har bir detal va qahramonlar xarakteri ham yaxshi ochib beriladi.

Undan o'z oila a'zolari or qilgani va otasi tomonidan unga uloqtirilgan olma suvarak joniga qanchalik ozor berganini mantiqiy nuqtayi nazardan qaraydigan bo'lsak, hayotdagi turli qiyinchiliklar va ularning sababchisi o'laroq atrofdagi insonlar tomonidan hech kimga yomonlikni istamagan insonlarga nisbatan otilgan yomonliklar, razilliklar sifatida ham ko'rsak bo'ladi.

Yoki ishga kelmagan xodimini holidan xabar olgani emas balki, ishga borishini talab qilib kelgan boshliqni olaylik, Zamzaga inson sifatida emas guyoki, sira kasal bo'lishga va ishni qoldirishga haqqi yo'q robot kabi qaralgan.

Tongda suvarakka aylangan holda uyg'ongan bo'lsada yotog'dan turishga intiladi va otasini qarzini uzish uchun ishlashi zarurligini qayta-qayta takrorlaydi, bu esa o'z navbatida hayotni turli sinovlari unga otilsada yashash uchun qilayotgan ayovsiz kurash uni holdan toydiradi. Shu o'rinda kitobxon tomonidan quyidagi savollar yuzaga kelishi aniq.

Biz agar shu qahramon holiga tushganimizda qanday yo'l tutgan bo'lar edik? Biz atrofdagilar uchun nechog'lik qadr qimmatga egamiz? Nega boshqalarga emas aynan menda, mening taqdiri azalimga bu sinov bitildi? Bu savollarga javobni hikoyani bir bora o'qiganingizda anglamasligingiz mumkin, yoki salohiyatingiz oqsar tushunish uchun.

Keraksizga aylanish ancha og'riqli lekin haqiqat shu qadar achchiqki achchiq bo'lsada siz ko'nishga majbursiz. Bu o'ta achinarliya? Eng azoblisi shuki, otangning qarzlarni to'lash uchun zahmat cheksang, ro'zg'or uchun mehnat qilsang, oilamning eng kerakli a'zosiman deb o'ylasang biroq bir kun boshingga sinov toshi gurs etib tushsa, qondoshlaring avval sendan qo'rqsa keyin yuz o'g'irsa, bora-bora seni yo'q bo'lishingni ich-ichidan istay boshlashlarsa shuncha g'alva yetmagandek oxiring ham ayanchli tugasa, shunda ham yaqinlaring vafotidan ranjish o'rniga yengil tortsa, guyo bir kulfati ariganidan mamnun holda dam olish uchun shaharga ketishsa inson qadr-qimmatini shunchalikmi?

To'g'ri u suvarakka aylangan edi, lekin, ungacha u ota-onasining jon tomiri edi-ku, umuman olganda u insonmi, hasharotmi u oilasining davomchisi Gregor ediku? Mehr-oqibat kabi tuyg'ular undan keladigan manfaatga, foydaga bog'liq bo'lsa bunday tuyg'ular bo'lmagani ma'qul. Ushbu maqolaning yozishdan maqsad ham aynan shularni o'qirmanga yetkazish edi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD

Maqolani yozish jarayonida qiyosiy tahlildan foydalanildi, hikoyadagi voqealar rivoji nechog'lik Kafka hayoti va turmush tarziga aloqadorligi ko'rib chiqildi. Adabiyotlardan foydalanish jarayonida Muhammadjon Xolbekovning „Modern adabiyoti manzaralari“ kitobi va dotsent Nilufar Cho'liyevaning „Adabiy ta'sir badiiy uslub mahorati“ nomli tadqiqotlaridagi fikr-mulohazalar ko'rib chiqildi.

MUHOKAMA

Muhokama bosqichida Muallifning ijodi va faoliyati uning hikoyalarida aks etgan haqiqat nafasi va uning achchiq hayoti bilan nechog'lik bog'liqlik jihati borligi borasida qarashlar bildirildi.

XULOSA

Hikoyada aks etgan voqealar bir qarashda ertakga o'xshab ko'rinsada majoziy ma'noda haqiqat ekanligi va oila masalalari yuzasidan turmushda uchraydigan ko'pgina muammolar borligi muhokama qilindi. Bir qator olimlar va izlanuvchilar tadqiqotlari o'rganildi.

FOYDALANIGANADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston milliy ensklopediyasi Birinchi jild. Toshkent. 2000-yil
2. Muhammadjon Xolbekov o‘zining XX asr „Modern adabiyoti manzaralari“ Toshkent. 2018-yil
3. Nilufar Cho‘liyevaning „Adabiy ta’sir, badiiy uslub, mahorat: Franz Kafka va Nazar Eshonqul“ nomli maqolasi Oriental journal of Philology jurnali Toshkent 2024-yil
4. www.Asarlar.uz
5. www.wikipedia